

9.4. LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

TUFELKA INFUZORIYASINING HARAKATLANISHINI KUZATISH

Maqsad: tufelka infuzoriyasining mikroskop yordamida harakatlanishini ko'rish.

Infuzoriyalar birinchi marta pichan ivitmasida topilgan. "Infuzoriya" so'zi ham lotin tilida "pichan ivitmasi hayvonlari" ma'nosini anglatadi. Tufelka infuzoriyasi o'simlik qoldiqlari ko'p bo'lgan suv havzalarida uchraydi. Uning uzunligi 0,1–0,3 mm bo'lib, tanasining shakli poyabzal tagiga o'xshab ketadi. Tanasining sirti juda ko'p kipriklar bilan qoplangan. Kiprikchalarning tebranishi tufayli tufelka to'mtoq tomoni bilan oldinga suzadi.

Bizga kerak: mikroskop, 2–3 hafta oldin tayyorlab qo'yilgan pichan ivitmasi, buyum va qoplagich oynalar, paxta tolasi, tomizg'ich, qaychi, filtr qog'ozi.

Xavfsizlik qoidalari: 

1. Qaychidan foydalanganda o'zingiz va o'rtoqlaringizga tegib, noxush holatlar kelib chiqishidan ehtiyot bo'ling.

2. Mikropreparatni yon chetlaridan bosh va ko'rsatkich barmoqlar bilan ushlang.

3. Mikropreparatdagi obyekt ezilmasligi uchun mikroskop bilan ishlashda, ayniqsa, kichik obyektividan kattasiga o'tkazishda juda ehtiyot bo'ling.

Ishni bajarish tartibi:

1. Tomizg'ich yordamida tufelka infuzoriyasi oldindan tayyorlab qo'yilgan pichan ivitmasidan 15–20 tomchi olib, buyum oynasiga tomizing.

2. Tufelka infuzoriyasining harakatini sekinlashtirish uchun tomchiga bir necha dona paxta tolasi tashlang.

3. Tomchining ustini qoplag'ich oyna bilan yoping va uning chetlaridagi suvni filtr qog'oziga ehtiyotkorlik bilan shimdirib oling.

4. Preparatni dastlab mikroskopning kichik obyektivida, so'ng katta obyektivida kuzating.

5. Tufelka infuzoriyalarining organik zarrachalar yoki paxta tolalari atrofida g'uj bo'lib to'planish xususiyatiga e'tibor bering.

6. Kiprikchalar bir me'yorda harakatlanib, tufelka infuzoriyasi tanasi yaqinida, ayniqsa, uning og'iz teshigi atrofida suv oqimini hosil qilishini kuzating.

7. Mikroskopda tufelka infuzoriyasining kipriklari yordamida harakatlanishiga e'tibor bering.

Natija: tufelka infuzoriyalari kiprikchalarning tebranishi tufayli to'mtoq tomoni bilan oldinga suzadi.

Muhokama qiling va xulosa chiqaring:

1. Tufelka infuzoriyasi o'zining qaysi jihatlari bilan boshqa sodda organizmlardan farq qilishini misollar asosida tushuntiring.

2. Nima sababdan ushbu tajribani o'tkazish jarayonida tayyorlanayotgan preparatga paxta tolasi tashlanadi? Bu holatni izohlab bering.

3. Tufelka infuzoriyasining harakatlanishi boshqa sodda organizmlardan qaysi jihatlari bilan farq qilishini bayon eting.



Tufelka infuzoriyasini pichan ivitmasida ko'paytirish.